

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasida 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini amal qilishi haqida UMUMIY HISOBOT

I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot:

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi korrupsiyaga qarshi kurashish mutaxassisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarori talablaridan kelib chiqib 2025-yil mart oyida 5 ta yo'nalish va 37 bandan iborat chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi va ijrosi yil yakunlari bilan to'liq ta'minlandi.

Qo'mita tomonidan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o'tkazilgan yig'ilishida ta'kidlangan topshiriqlar va ko'rsatmalar ijro uchun qabul qilinib, mazkur topshiriqlar doirasida 2025-yil 27-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf qilish hamda "korrupsiyadan holi" muhitni yaratish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'L XARITASI" ishlab chiqilib tasdiqlandi hamda yil yakuni bo'yicha barcha topshiriqlar ijrosi ta'minlandi.

II. Siyosat va tartib-taomillar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi raisining 2025-yil 6-maydagi 01/136 son buyrug'i bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlari to'plami" tasdiqlandi.

Jumladan, - Qo'mita faoliyatida korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish va korrupsion harakatlarni oldini olish maqsadida, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom;
- aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;
- xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma;
- kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;
- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;
- korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti;
- korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament;

- davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom kabi 11 ta ichki idoraviy hujjatlar.

Shuningdek, Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi raisining 2025-yil 26-sentyabrdagi 01/08-36-son buyrug'iga ILOVA bilan "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi" Nizom tasdiqlandi.

III. Xavf-xatarlarni baholash:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PQ-240-son qarorining 1-bandiga muvofiq hamda "Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" Uslubiyotining (31.08.2022-yilda 3383-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) 27-bandiga asosan, davlat tashkilotining birinchi rahbari korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini «E-anticor.uz» elektron platformasi orqali tasdiqlashi belgilangan.

Shunga ko'ra, qo'mita tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati. (yuqori, o'rta, past) hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida 14 bandan iborat tayyorlangan xavf-xatarlar xaritasi loyihasi tayyorlanib, tegishli platformaga kiritilib, qo'mita raisi tomonidan tasdiqlangan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi talablari doirasida qo'mita markaziy apparati va hududiy boshqarma (bo'lim)larning 144 nafar mas'ul xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirishi ta'minlangan.

Bundan tashqari, qo'mitaga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar, shuningdek boshqa ishga o'tkazilgan xodimlardan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi belgilangan shakldagi deklaratsiyani to'ldirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 6-maydagi 01/136-son buyrug'iga 3-ilova bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki idoraviy hujjatga asosan xodimlar tomonidan 2025-yil davomida to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalar tahlil qilib chiqilgan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot sharnomalariga kiritish:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi tomonidan 2025 yil davomida tuzilgan xo'jalik shartnomalari ja'mi 167 tani tashkil qilgan. Mazkur shartnomalarda korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilgan bo'lib, qo'mitani Kompluens nazorat bo'limi tomonidan doimiy ravishda kontragent tekshiruvlari o'tkazib borilgan.

Kontragentlarni tekshirish:

Hisobot davrida ja'mi 167 ta (xo'jalik shartnomalari) kontragent bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilgan, ushbu monitoring davomida salbiy holatlar aniqlanmagan.

Ishga nomzodlarni tekshirish:

2025 yil davomida Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar uchun 16 marotaba vakant ish o'rinlari uchun e'lon berilib, <https://vacancy.argos.uz/> platformasi orqali tanlov tashkil qilingan. Tanlovlar davomida kelib tushgan ja'mi 464 ta nomzod hujjatlari dastlabki tekshiruvdan o'tkazilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya:

2025-yil 27-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf qilish hamda "korrupsiyadan holi" muhitni yaratish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'L XARITASI" ishlab chiqildi.

Shuningdek, 2025-yil 15-mart va 26-mart kunlari qo'mita markaziy apparati va hududiy bo'limlari ishtirokida 2024-yil 6-dekabrda kuchga kirgan «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi qonunni mazmun mohiyati jamiyat va davlat uchun muhim ahamiyat to'g'risida o'quv-seminari o'tkazildi.

Bundan tashqari, qo'mitada korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan 2 marotaba so'rovnoma o'tkazilib, unda aholi va tadbirkorlardan ja'mi 1240 nafari ishtirok etishi ta'minlandi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da joriy yilning iyun oyida qo'mitaning Komplaens nazorat bo'limi mas'ul mutaxassisleri o'qitilishi ta'minlanib tegishli sertifikat qabul qilib olindi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 6-maydagi 01/136-um-son buyrug'i bilan Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamenti tasdiqlangan.

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi ish yurituviga 2025 yilda Jismoniy va yuridik shaxslardan jami 1178 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 197 tasi jismoniy shaxslardan, 981 tasi yuridik shaxslardan kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 1173 tasi ijobiy hal etilgan bo'lib 5 tasi Qo'mita vakolatiga kirmagan masala bo'lganligi sababli boshqa tashkilotlarga yo'naltirilgan bo'lsa 11 tasi korrupsiya faktlariga doir bo'lganligi uchun alohida nazorat tartibida o'rganib chiqilgan.

VII. Monitoring va nazorat:

Qo'mitaning Komplaens nazorat bo'limi tomonidan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida doimiy monitoring ishlari yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, 107 marotaba yakka tartibda suhbat, 4 ta hududiy bo'limda tekshirish, tasdiqlangan idoraviy korrupsiyaga qarshi hujjatlar talablari yuzasidan 71 marotaba nazorat tadbiri o'tkazilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari:

2025 yil davomida qo'mitada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablar xodimlar tomonidan buzilganligi yuzasidan 4 ta xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 5 ta xodimga intizomiy chora ko'rilgan.

IX. Xulosalar:

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasiga belgilangan vazifalar doirasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;

Qo'mita tizimida hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida korrupsiyaga qarshi davlat inspektorlarini huquqiy bilimlarini oshirib borish va qo'mitani korrupsiyadan xoli tashkilotga aylantirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rib borilmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi:

mavzuli audio-, videoroliklar, bannerlar, plakatlar va innovatsion axborot-targ'ibot materiallaridan foydalangan holda fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat, korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq xulqni shakllantirishga qaratilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida kampaniyalarni o'tkazish;

Alohida maqsadli guruhlarining (davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va boshqalar) korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi va tizimi haqida huquqiy bilimi va xabardorligini oshirish yuzasidan ahamiyatga ega bo'lgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiya omillarini aniqlash, korrupsiya xavf-xatarlarini boshqarish va ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish borasida vazirlik va idoralar vakillari uchun davriy ta'lim berish tizimini joriy etish;

davlat organlari faoliyatining xususiyatlarini inobatga olgan holda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish borasida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'yicha bosh mutaxassis**



Sh.Sattarov